


21. Sonlarni qo'shish (6 + 25)

Yondosh mavzu:
Oshxona

Xonadan o'tib qo'shish.



1. Har bir qatordagi ortiqcha so'zni toping.
Mikroto'lqinli pech, mikser, choynak, blender.
Televizor, planshet, kitob, kompyuter.
Kamayuvchi, yig'indi, ayirma, ayriluvchi.

2. Qo'shiluvchilarning o'rinlarini almashtiring va misollarni yeching.

$$7 + 25$$

$$8 + 32$$

$$9 + 14$$

$$6 + 36$$

3. Jadval yordamida masala tuzing. Ifoda yozing va hisoblang.

Bor edi	Sotildi	Qoldi
90 ta	O'tgan kuni 35 ta Kecha 22 ta Bugun 7 ta	? ta

4. Hisoblang.

$$28 - 5 + 4$$

$$60 - 15 - 3$$

$$65 + 2 + 3$$

$$41 + 9 + 17$$


$$16 + 14 + 10$$

$$90 - 5 + 7$$

21. Sonlarni qo'shish (6 + 25)



5. Elektr choynak 3 minutda, xuddi shu hajmdagi gaz chovgum 5 minutda qaynaydi. Agar 4 ta choynak suvni qaynatish kerak bo'lsa, elektr choynakda qancha vaqtni tejash mumkinligini sonlar nuri yordamida hisoblab chiqing.



Daftar kataklari yordamida sonlar nurini daftaringizga chizing.



6. Birinchi kesmaning uzunligi 50 santimetr. Ikkinchi kesmaning uzunligi birinchi kesmadan 23 santimetr qisqa. Uchinchi kesma ikkinchi kesmadan 2 santimetr qisqa. Uchinchi kesmani chizing.



7. Maktab oshxonasiga 30 buxanka non olib kelindi. Tushlik vaqtida 22 buxanka non yeyildi. Nechta buxanka non qoldi? Qolganidan qancha ko'p buxanka yeyilgan?



8. Oshxonada salat tayyorlash uchun yashikdan oldin 4 kilogramm pomidor olindi, keyin yana 2 kilogramm olindi. Yashikda 15 kilogramm pomidor qoldi. Yashikda necha kilogramm pomidor keltirilgan edi?